NAFAS SHODMONOVNING “ABU MUIN NASAFIY” DRAMASI LEKSIKASINING LINGVISTIK TADQIQI

Qoraqulova Nodira Axmadovna
Xalqaro innovatsion universitet,
Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi 1-kurs magistranti
Telefon: +998916408969
nodiraqoraqulova38@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20047204

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Nafas Shodmonovning “Abu Muin Nasafiy” dramasi leksik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda qo‘llangan tarixiy-diniy terminlar, arabcha va forscha o‘zlashmalar, antonimik juftliklar, frazeologik birliklar hamda emotsional-ekspressiv leksikaning badiiy va uslubiy vazifalari ochib beriladi. Drama leksikasi orqali Abu Muin Nasafiyning ilmiy-ma’naviy qiyofasi, shuningdek, o‘rta asr ijtimoiy-madaniy muhitining til vositasidagi ifodasi yoritiladi. Tadqiqot natijalari o‘zbek dramaturgiyasi va lingvistik tahlil sohalari uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: tarixiy drama, leksika, diniy terminlar, antonim, frazeologiya, emotsional-ekspressiv birliklar, nutq uslubi.

O‘zbek adabiyotida tarixiy-dramatik asarlar muhim o‘rin tutib, ular orqali milliy o‘zlik, tarixiy xotira va ma’naviy qadriyatlar badiiy talqin etiladi. Bunday asarlarda til va leksik birliklarning tanlanishi muallif g‘oyasini yetkazishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Nafas Shodmonovning “Abu Muin Nasafiy” dramasi ham tarixiy shaxs — buyuk mutakallim va islom olimi Abu Muin Nasafiyning hayoti va ilmiy-ma’rifiy faoliyatini sahna vositasida yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda leksik qatlamning boyligi va funksional imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada drama matnida qo‘llangan leksik birliklar lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ularning semantik, uslubiy va pragmatik xususiyatlari ochib beriladi. Jumladan, asarning tarixiy-diniy leksikasi quyidagilar asosida batafsil yoritilgan. Ushbu Drama leksikasining asosiy qismini tarixiy-diniy terminlar tashkil etadi. Abu Muin Nasafiy islom ilmining yetuk namoyandasi bo‘lganligi sababli, asarda diniy-falsafiy tushunchalar faol qo‘llanilgan. Jumladan, *“aqida”, “kalom ilmi”, “e’tiqod”, “bid’at”, “sunna”, “haq”, “botil”, “dalil”, “burhon”* kabi terminlar qahramonlar nutqida tez-tez uchraydi. Masalan, Abu Muin Nasafiyning quyidagi fikri bunga yaqqol misol bo‘la oladi: “E’tiqod ilm bilan mustahkamlanmasa, u ko‘r-ko‘rona taqliddan nariga o‘ta olmaydi.” Bu jumlada “e’tiqod”, “ilm”, “taqlid” so‘zlari bir-biri bilan semantik bog‘lanib, ilmiy-diniy mazmunni ifodalaydi. Mazkur terminlarning qo‘llanilishi asarning tarixiy haqiqatga yaqinligini ta’minlab, Abu Muin Nasafiyning ilmiy dunyoqarashini ochib berishga xizmat qiladi.

Shuningdek, dramada arabcha va forscha leksik qatlamning o‘rni ham yaqqol sezilib turadi. Nafas Shodmonov dramada qo‘llanilgan arabcha va forscha o‘zlashmalarga alohida e’tibor bergan, shuning uchun asarda muhim leksik qatlamni tashkil etadi. Bu holat asarning tarixiy davr ruhini saqlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan desam, xato bo‘lmaydi. Xususan, “ulamo”, “fuzalo”, “madrasa”, “fatvo”, “shogird”, “ustoz”, “ilm majlisi” kabi birliklar orqali o‘rta asr ilmiy muhitining manzarasi yaratilgan/ Masalan: “Ulamo jim turgan yurtda jaholat hukmronlik qiladi. Bu yerda “ulamo” so‘zi ijtimoiy-ma’naviy qatlamni bildiruvchi umumlashtiruvchi leksik birlik sifatida ishlatilgan. Shuningdek, bu kabi so‘zlar personajlar nutqini individuallashtirib, ularning ijtimoiy mavqeini ham ko‘rsatishga xizmat qilgan.

Bundan tashqari, asarda antonimik va semantik qarama-qarshiliklar mavjud, ijodkor bu vositalarni asar matnida faol qo‘llaydi. Asardagi antonimik juftliklar asosan dramatik konflikt ya’ni qarama-qarshilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Jumladan, “ilm – jaholat”, “haqiqat – yolg‘on”, “adolat – zulm”, “nur – zulmat” kabi qarama-qarshi ma’noli birliklar orqali g‘oyaviy ziddiyat ifodalangan. Masalan: “Jaholat zulmatdir, ilm esa zulmatni yoritar nurdir.” Bu jumlada antonimlar nafaqat semantik, balki falsafiy yuklama bilan qo‘llanib, tomoshabinga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Antonimik munosabatlar asarda faqat so‘z darajasida emas, balki butun obrazlar tizimida ham namoyon bo‘ladi: Abu Muin Nasafiy — ilm va haqiqat timsoli bo‘lsa, unga qarshi kuchlar jaholat va mutaassiblikni ifodalaydi. Shubhasiz, bunday vositalar asarning mohiyatini keng yoritib bergan.

Asardagi bir qator leksik birliklar asar strukturasini tashkil etadi. Xususan, frazeologik birliklarning badiiy vazifasi ham nihoyatda katta. Dramada frazeologik birliklar personajlarning ruhiy holatini ochib berishda muhim rol o‘ynaydi. “Ko‘zi ochilmoq”, “qalbi uyg‘onmoq”, “tili bog‘lanmoq”, “yo‘ldan ozmoq” kabi iboralar obrazlarning ichki kechinmalarini ifodalashda qo‘llanilgan. Masalan:“Haqiqatni anglagan insonning ko‘zi ochiladi, ammo har ochilgan ko‘z haqiqatga bardosh bera olmaydi.” Bu yerda “ko‘zi ochilmoq” iborasi bilish, anglash ma’nosida metaforik tarzda ishlatilgan. Frazeologizmlar asarning badiiyligini oshirib, nutqqa obrazlilik va ta’sirchanlik bag‘ishlaydi. Bundan tashqari, asar leksikasida emotsional-ekspressiv birliklar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, ziddiyatli sahnalarda undovlar, ritorik savollar va baholovchi so‘zlar ko‘p ishlatiladi. Masalan: “Qachongacha haqiqatni bo‘g‘ib yashaymiz?!” Bu gapda ritorik savol shakli orqali ichki norozilik va dramatik keskinlik ifodalangan. Shuningdek, “zulm”, “qo‘rquv”, “adovat”, “g‘azab” kabi so‘zlar salbiy emotsional fonni kuchaytirgan.

Dramada nutqiy uslubiy tafovutlar ham aniq seziladi. Asardagi bosh obraz Abu Muin Nasafiy nutqi ilmiy-mantiqiy, dalillarga asoslangan bo‘lsa, unga qarshi obrazlar nutqida buyruqbozlik va tahdid ohangi ustun turadi. Masalan, “taqiqlanadi”, “jazolanadi”, “bo‘ysun” kabi fe’llar hokimiyat vakillarining nutqiga xosdir. Bu uslubiy farqlanish orqali muallif ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutni til vositasida ochib bergan.

Xulosa qilib aytganda, Nafas Shodmonovning “Abu Muin Nasafiy” dramasi leksik jihatdan serqatlam va funksional imkoniyatlarga boy asardir. Unda tarixiy-diniy terminlar, arabcha-forscha o‘zlashmalar, antonimik juftliklar, frazeologik birliklar va emotsional-ekspressiv leksika uyg‘un holda qo‘llanib, asarning g‘oyaviy-badiiy yuksakligini ta’minlaydi. Drama leksikasi orqali Abu Muin Nasafiyning ilmiy-ma’naviy qiyofasi, shuningdek, o‘sha davr ijtimoiy-madaniy muhitining murakkab manzarasi yorqin namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan mazkur asar nafaqat adabiy, balki lingvistik tadqiqotlar uchun ham muhim manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shodmonov N. Abu Muin Nasafiy. –Toshkent: Adabiyot, 2023
2. Rahmonov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2024.
3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va lingvistik tahlil. – Toshkent: Universitet, 2007.
4. Qurbonov A. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2018.
5. Mahmudov N. O‘zbek tilining leksikologiyasi. – Toshkent: Fan. 1981.